



G`AZAL MULKINING SULTONI

Kirgizbayeva Zarifa Ablakimovna

Toshkent viloyati O`rta chirchiq tumani

65-umumiy o`rta ta`lim maktabi

1-toifali ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi

Olam ahli bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o`lung bir-biringizgakim, Erur yorlig' ish.

Alisher Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shahrida saroy amirlaridan bo`lmish G'iyosiddin Kichkina xonadonida tavallud topdi. Dastlab maktabda, so`ng madrasalarda ta`lim oldi. Davlat ishlarida xizmatda bo`ldi, faol ijod bilan shug`ullandi.

1483-1485-yillarda shoirning eng buyuk asari- besh dostonidan iborat "Xamsa" yaratildi. Abdurahmon Jomiy bu asarga yuksak baho berdi. Husayn Boyqaro esa buyuk shoirni o`zining oq otiga mindirib, unga jilovbardorlik qilib, Hirot ko`chalarini aylantirdi. Bu insoniyat tarixida kamdan kam uchraydigan hodisa edi: qudratli davlatning shavkatli podshohi bir shoirga jilovbardorlik qilsa. Mazkur hodisa ayni paytda Husayn Boyqaroning ma`nan yuksak, ma`rifatli va haqiqatpesha hukumdor bo`lganligidan dalolat beradi.

Shoir "Xamsa" dan keyin "Tarixi muliki Ajam" ("Ajam shohlari tarixi"), "Tarixi anbiyo va hukamo" ("Payg`ambarlar va olimlar tarixi"), "Siroj ul-muslimin" ("Musulmonlik nuri") kabi asarlarni yaratdi. Hadislar asosidagi qirqta ruboiyni o`z ichiga olgan "Arbain", 266 ta ruboiydan iborat "Nazm ul-javohir" asarlari ham shu yillarda yuzaga keldi. Muammo janriga bag`ishlangan "Risolai muammo" (ikkinchi nomi " Mufradot") risolasini yozdi. Navoiy zamonasida muammo janri keng tarqalgan bo`lsa-da, asosan, fors tilida bitilgan edi. Navoiy turkiy tilda muammo yozgan ilk shoirlardan bo`ldi. "Xazoyin ul-maoniy" ga ham bir qancha muammolari kiritilgan.

Shular qatorida Navoiy lug`atshunoslik borasida " Sab`at-u abxur" (" Yetti dengiz") nomli kitob, adabiyotshunoslik va adabiyot nazariyasi borasida ham maxsus asarlar yaratdi. " Risolai muammo" asaridan tashqari turkiy tazkirachilikning ilk namunasi bo`lmish " Majolis un-nafoi" ("Nafis majlislari") asarini yaratdi. Unda o`zbek va forsiy tillarda ijod qilgan o`ziga zamondosh shoirlar haqida ma`lumotlar berilgan, bu ijodkorlarning yutuq va kamchiliklari, o`ziga xos yaratish bilan o`z davri adabiyotiga, uning ijodkorlariga, o`ziga xos haykal o`rnati. " Mezon ul-avzon"

(" Vaznlar o`lchovi") ilmiy risolasini yozib, turkiy aruzning bir necha asrlik tajribasini umumlashtirdi. Navoiy " Munshaot" ("Maktublar") kitobini tuzgan. Unda xatlar jamlangan bo`lib ularning aksariyati shoirning shoh va shahzodalarga, ilm-ma`rifat ahliga yo`llagan maktublari edi.

Shoirning eski o`zbek va fors-tojik tillarida yaratgan boy lirik merosi o`zbek lirikasini yangi pog`onaga olib chiqdi. Uning lirik she`rlari jami sakkiz devonga



jamlangan. Shulardan birinchisi Navoiyning zamondoshlari, qolgan yettitasi rasmiy devon uslubida shoirning o'zi tomonidan tuzilgan.

Shoirning barcha turkiy tilda bitilgan she'lari to'rt devondan iborat "Xazoyin ul-maoniy" ("Ma'nolar xazinasini") kulliyotiga jamlangan.

"Xazoyin ul-maoniy" dagi har bir devon alohida nomlangan:

1. "G'aroyib us-sig'ar" ("Bolalik g'aroyibotlari").
2. "Navodir ush-shabob" ("Yigitlik nodirotlari").
3. "Badoe' ul-vasat" ("O'rta yosh badialari").
4. "Favoyid ul-kibar" ("Keksalik foydalari").

"Xazoyin ul-maoniy" da jami 16 lirik janrga oid asarlar o'rin olgan. Majmuada g'azal eng asosiy janr hisoblanadi. Har bir devonga bir xil miqdorda- 650 tadan, jami 2 ming 600 ta g'azal kiritilgan. Xalq orasida "Chor devon" nomi bilan mashhur ushbu asar butun Sharq so'z san'atining ulkan yodgorligi hisoblanadi.

"Xazoyin ul-maoniy" lirik devoniga kiritilgan g'azallardan tarkib topgan bahrul baytni sizga havola qilamiz.

1. Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi,
Ko'zlarimga kecha tong otkuncha uyqu kelmadi.
Lahza-lahza chiqtimu chektim yo'lida intizor,
Keldi jon og'zing'ayu ul sho'xi badxo' kelmadi.
2. Ish aro vasling tilab hajringda bo'ldim dardnok,
Xasta yanglig'kim hayot umididin bo'lg'ay halok.
Yo'q ajab gar ul quyosh navhangg'a boqmas, ey ko'ngul
O'tqa ne g'am garchi kuygan nola aylar dardnok
3. Ko'rungu tuni nutaronim fido,
Ravanlahsh lalingga jonim fido.
Luling rungu olindu qonim sulil,
Qading jilg'asi ravonim fido.
4. Orazidek oydin erkada gar yeti ehtiyot,
Ro'zg'oringdek o'lg'onda qorong'u kelmadi.
Ul parivash hajridinkim yig'ladim devonavor,
Kimsa bormukim, oniy ko'rganda kulgu kelmadi.
5. Ishq aro shohu gado tengdirlar, gado balkim fuzun,
Gar gadolig' aylar o'lsa ishqning yag'mosidin.
Kimki ra'noliq bila oshiq bo'lib istar visol,
Tortingiz otig'a xat ishq ahlining asmosidin.
6. Navoiy garchi oldi lola yanglig',
Erur doying bila qonlig' kafanda.
Nechakim shoh beparvolig' etsa,
Kerak o'ksitmasa qullig'ini banda.
7. Aylagan ish havas kuch birla
Yuz tuman dardu balo qilma havas.



Ko'yi tufrog'i erur mushki Xito,
Istagan oni xato qilma havas.
8. Sog'inurmenkufr zulfi mojasrasidin base,
Gar dame ul sho'xi kofir mojaroni ko'rmasam.
Kim vafo gulchehralardin ko'rdikim, men ko'rgamen,
Bo'lmas ushbu ayb ila ul bevafoni ko'rmasam.
9. Men jahondin kechtimu kechmas mening jonimdin el,
Men ilik jondin yudum, chekmas ilik qonimdin el.
To'sh-to'shumdin baski rasvolig' o'ti lov-lov yonar,
Har taraf yo'lindin chiqarlar o'tsalar yonimdin el.
10. Labraring sharbatini chashmayi hayvonmu deyin?
Demasam chashmayi hayvon, ne deyin, jonimu deyin?
Tun-kunumkim yorug' ul yuzdin erur, vahki, ani
Mohi anvarmu deyin, mehri duraxshonmu deyin?
11. Ne navo so'z aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylanmas to'ti takallum shakkaristondin judo.
Ul quyosh hajrida qo'rqarmen falakni o'rtagay
Har sharorekim, bo'lur bu o'tlug' afg'ondim judo.
12. Ochmayin zulfin, parishon ko'ngluma chekurma
Yetmayin ohim yeli, zulfin parishon aylama.
Jonima la'lidin o'zga la'lidin berma hayot,
La'lig'a jonimdin o'zga jonni qurbon aylama.
13. Aytur ermishsenki, oy bir kamtarinquldur manga,
Ko'rku, yoru etmish oyning toli' I farxandasi.
Toji Kayxusrav bila mulki Sulaymon istamas,
To Navoiy ul sultoni olam bandasi.
14. Ishqi soldi xonumonim ichra o't,
La'li otashnoki jonim ichra o't.
Nega yetgan yerda o'rtar xalqni,
Bo'lmasa ohu fig'onim ichra o't.
15. Tolibi sodiq topilmas yo'qsa kim qo'ydi qadam,
Yo'lg'a kim avval qadam ma'shuqi o'tru kelmadi.
Ey Navoiy, Boda birla xurram et ko'nglung uyin,
Ne uchinkim boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.
16. Ichib, faryod etib tushtum ayog'iga borib o'zindin,
Meni yo'q bodakim, lutfi aning masti xarob aylab.
Anikim eltgay vasl uyqusi ishrat tuni mundoq,
Navoiydek netar to subhi mahshar tarki xob aylab.
17. Bag'ri la'li, ko'z durri ollingda sarf,
Demaykim senga bahru konimfido.
Junun birla aqlim g'aming sadqasi,



Ki ollingda yaxshi-yomonim fido.

18. Odam avlodida kamdir odamiylik' shevasi,
Odam ermas ulki mayli odamzod aylagay.

Ne balodurkim falak har kimga cheksa tig'I hajr,
Yonglib avval mening jonimg'a bedod aylagay.

19. Yo'qki ul ko'z qoradur husning aro, ey qorako'z,
Kim qoshing dog'i erur asru qaro, ey qorako'z.

Gar ko'ngullarni jalovi vatan istar bo'lsang,
Yesh tugunlarniyu zulfingni taro, ey qorako'z.

20. Zohido, boshtin-ayog'ing zaraq erur qo'y pandkim,
Besaruplarg'a bo'lmasa kafshu dastor orzu.

Orzu aylar Navoiy koyung ichra orazing,
Zor bulbul aylagandek bog'u gulzor orzu.

21. Ul armon ichinda bo'lsun, ey Navoiy, garchi men
Bir zamon ichqidaa mehnatdin amone topmadim

Tab' ganjiddin maoniy xurdasin, yuz qatla hayf,
Kim nisor etmakka shohi xurdadone topmadim

22. Meh ko'p ko'rguzdum ammo mehribone topmadim,
Jon base qildim fido, oromi jone topmadim.

G'am bila jonimg'a yettim, g'amg'usore ko'rmadim,
Hajr ila dilxasta bo'ldum, dilistone topmadim.

23. Mahvashekim, mehriddin bo'ldum jahon ovarasi,
Rahm etib bir chora qilmas o'lsa ham bechorasi

Zaxmlar qilding yana g'am neshiddin, ey bevafo
Butmish erdi vasl no'shi birla bag'rim yorasi.

24. Ish aro yuz ming malomat o'qig'a bo'ldum nishon,
Bir kamon abro'da tuzlukdin nishone topmadim.

Ko'nglum ichra sarv o'qdur, g'uncha paykon, gul tikan,
Dahr bog'I ichra mundog' gulsitone topmadim.

25. Ming zaxm erdi xanjari ishqing bu tan aro,
Bu tanni hajr tashladi yuz ming tikan aro.

Lek ul tikanlar uzra xayoling bila ko'ngul,
O'ynar magar gul uzrayu ag'nar saman aro.

26. Olam ahli, bilingizkim, ish emas dushmanlig',
Yor o'lung bir-biringizgakim, erur yorlig' ish.

Xasta ko'nglini Navoiyning olib asraki, bor
Senga dildorlig' ish, bizga dilafko'rlik' ish.

27. Sho'x iki g'izolingni noz uyqusiddin uyg'ot,
To uyqulari ketsun gulzor ichida o'ynot.

Tishlabki soching o'rdung, ochqanda parishon qil,
Ofoq savodinda jon riyohasin butrot.



28. To taning avji hayot ustidadur sen xok bo'l,
Istasangkim avj tutqaysen taning bo'lg'onda xok.
Ey Navoiy, shomi g'amdin ayru yo'qtur shubhi vasl,
Oq erur lekin qarortun har neni rang etsa zok.
29. Kecha dushmanlarg'akim nolamdin uyqu kelmadi,
Ranjamen mundin dog'ikim, bo'madi bedor do'st.
Men o'lar holatda, dushmanlar ko'rurnur do'stvash,
Neshun o'lmaykim, kelur boshimg'a dushmanvor do'st.

30. To ne afsun qildi ul sohirki, dilkash nomasi,
Oldi ham jismim qarori, ham ko'ngil oromini.
Jomi ishrat tortmoqdin yaxshiroq ish topmadim,
Chunki bu davr ichra bilmas kimsa ish anjomini.
Bu kecha qosid malolidin agar vahm etmasam,
Ey Navoiy, kim topa olg'ay so'zum itmomini.

Lug'at.

Yag'mosidin-talon-taroj

Asmosidin-ismlar

Duraxshonmu-porloq quyosh

Mohi anvormu-nurli oy

Sharorekim-uchqun alanga

Farxandasi-qutlug' soadatli

Kayxusrav-ajam shoxlaridan biri

Sulaymon- podshoh, sulaymon payg'ambar

Mahshur-qiyomat tongi

Kim nisor etmakka shohi xurdudone topmadim- Tabiatim xazinasidan ma'nolar
zarralarini sochmoqqa, yuz qatla: biror nozik fahmli shohni topmadim.

G'amg'usore-g'amxo'r

Tuzlikdin-to'g'rilik

Saman-samon oq-sariq rangli

Gizolingni-kiyik

Royihasin-yoqimli hid

Zok-qora bo'yoq

Itmomini-tugush, oxiri.